

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI VA ULARNING XALQ QO‘SHIQLARI BILAN UYG‘UNLIGI

Maxmudova Jasmina Muxtor qizi

BuxDPI 1-bosqich magistranti

jasminmakhmudova94@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy g‘azallari va o‘zbek xalq qo‘shiqlari o‘rtasidagi mazmuniy, badiiy hamda musiqiy uyg‘unlik ilmiy-tahliliy asosda yoritiladi. Tadqiqotda shoir g‘azaliyotining xalq og‘zaki ijodi bilan genetik va estetik bog‘liqligi, xususan, sevgi, hijron, armon va sadoqat motivlari talqinidagi mushtaraklik baytlar tahlili orqali ochib beriladi. Navoiy g‘azallarida xalqona obrazlar tizimi, milliy urf-odatlar, marosimlar va kundalik hayot manzaralarining badiiy aks etishi tahlil qilinadi. Shuningdek, g‘azallarining musiqiyligi, ramal bahrining xalq qo‘shiqlari ritmik tuzilishi bilan yaqinligi hamda “surud” tushunchasi doirasidagi ijro xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Navoiy g‘azallarining xalq orasida keng tarqalishi va asrlar davomida kuylanib kelishining badiiy-estetik asoslarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: g‘azal janri, o‘zbek xalq qo‘shiqlari, og‘zaki ijod, she‘riyatda musiqiylilik, ramal bahri, xalqona obrazlar, turkiy poetika, milliy estetik tafakkur.

Annotation: This article provides a scholarly analysis of the thematic, poetic, and musical harmony between Alisher Navoi’s ghazals and Uzbek folk songs. The study reveals the genetic and aesthetic connection between Navoi’s lyrical poetry and oral folk tradition, particularly through the interpretation of love, separation, longing, and devotion. Through close textual and verse-based analysis, the paper examines the presence of folk imagery, national customs, rituals, and everyday life scenes reflected in Navoi’s ghazals. Special attention is given to the musicality of the ghazals, the role of the ramal meter, and its rhythmic affinity with folk songs, as well as the performance-oriented concept of surud. The findings demonstrate that the enduring popularity and oral transmission of Navoi’s ghazals are grounded in their deep artistic and aesthetic harmony with folk song traditions.

Keywords: ghazal poetry, Uzbek folk songs, oral tradition, musicality in poetry, ramal meter, folk imagery, Turkic poetic tradition, national aesthetic consciousness.

Kirish

Alisher Navoiy g‘azaliyoti turkiy mumtoz adabiyot taraqqiyotida nafaqat estetik mukammalligi, balki xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘liqligi orqali ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir g‘azallari mazmunan xalq ruhiyatiga, shaklan esa xalq

musiqiy tafakkuriga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Navoiy gʻazallarining xalq qoʻshiqlari bilan uygʻunligi masalasi shoir lirikasining ijtimoiyestetik ildizlarini anglashda muhim ilmiy muammo sifatida namoyon boʻladi. Bu uygʻunlik gʻazalning faqat yozma adabiyot doirasida emas, balki ogʻzaki ijod muhitida ham faol yashab kelganini koʻrsatadi.

Xalq qoʻshiqlari oʻzining soddaligi, samimiyligi va musiqiy ravonligi bilan xalq ruhiy holatini ifodalovchi eng ommabop janrlardan biri hisoblanadi. Navoiy gʻazallarida ana shu xalqona ruh mumtoz poetik shaklga singdirilgan. Shoir gʻazallarida sevgi, hijron, visol, sadoqat, armon singari mavzular xalq qoʻshiqlaridagi kabi bevosita va tabiiy ohangda talqin qilinadi. Natijada gʻazal saroy adabiyotiga xos murakkab va yopiq janr boʻlib qolmay, xalq orasida kuylanadigan, esda saqlanadigan va ogʻzaki tarzda tarqaladigan badiiy shaklga aylanadi.

Navoiy gʻazallarining xalq qoʻshiqlariga yaqinligi, avvalo, musiqiylik bilan bogʻliqdir. Shoir gʻazalni koʻpincha “surud” — yaʼni kuy bilan aytiladigan sheʼr sifatida tasavvur qiladi. Gʻazallarda sozanda, mugʻanniy, nay, qoʻbuz, nagʻma kabi musiqaga oid tushunchalarning tez-tez tilga olinishi bu fikrni tasdiqlaydi. Bu hol Navoiy uchun gʻazal va qoʻshiq tushunchalari oʻrtasida qatʼiy chegara boʻlmaganini koʻrsatadi.

Navoiy gʻazallarida xalqona obrazlar tizimi ham muhim oʻrin tutadi. Yor va oshiq munosabatlari, goʻzallik tasviri, ishq iztiroblari xalq qoʻshiqlarida qanday maʼnoda ifodalansa, gʻazallarda ham shu semantik maydon saqlanadi. Farq shundaki, shoir bu obrazlarni badiiy umumlashtirish va falsafiy chuqurlashtirish orqali mumtoz adabiyot darajasiga olib chiqadi. Shu tariqa xalqona poetik tafakkur yozma adabiyot qonuniyatlari bilan uygʻunlashadi.

Shuningdek, Navoiy gʻazallarining vazniy qurilishi ham xalq qoʻshiqlari bilan yaqinlikni taʼminlagan muhim omillardan biridir. Ramal bahrining keng qoʻllanishi, uning ohangdorligi va turoqlanish xususiyati xalq qoʻshiqlaridagi ritmik tuzilishga mos keladi. Shu sababli Navoiy gʻazallari kuyga solinib, xalq orasida asrlar davomida yashab kelgan. Bu hol gʻazal va qoʻshiq oʻrtasidagi uygʻunlikni tarixiyadabiy jarayon sifatida baholash imkonini beradi. Navoiy gʻazallarini xalq qoʻshiqlaridan ajratgan holda oʻrganish ularning badiiy mohiyatini toʻliq ochib bera olmaydi. Aksincha, gʻazal va xalq qoʻshiqlari oʻrtasidagi ichki aloqalarni tahlil qilish shoir lirikasining milliy-estetik ildizlarini, xalq tafakkuri bilan genetik bogʻliqligini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar

Mazkur tadqiqot Alisher Navoiy gʻazallari va xalq qoʻshiqlari oʻrtasidagi uygʻunlikni aniqlashga qaratilgan boʻlib, unda bir necha ilmiy-tahliliy usullar uygʻun holda qoʻllanildi. Avvalo, qiyosiy-adabiy tahlil metodi asosida Navoiy gʻazallari xalq qoʻshiqlarining mazmuniy, obrazli va musiqiy xususiyatlari bilan solishtirildi. Bunda

xalq qo'shiqlariga xos sevgi, hijron, armon, sadoqat singari motivlarning g'azallardagi talqini baytlar orqali ochib berildi.

Ikkinchi muhim metod — poetik tahlil bo'lib, u orqali g'azallardagi obrazlar tizimi, badiiy tasvir vositalari va xalqona poetik tafakkur unsurlari o'rganildi. Yor, oshiq, gul, bulbul, hijron kabi obrazlarning xalq qo'shiqlaridagi semantik yuklamasi bilan Navoiy lirikasidagi ma'nolari qiyosiy tarzda talqin qilindi. Bu jarayonda baytlar asosiy tahlil materiali sifatida ishlatildi.

Shuningdek, metrik va musiqiy tahlil usuli ham qo'llanildi. Navoiy g'azallarida ramal bahrining qo'llanish chastotasi, uning turoqlanish xususiyatlari va ohangdorligi xalq qo'shiqlaridagi ritmik tizim bilan qiyoslandi. Ayniqsa, g'azallarning kuyga solinish imkoniyati "surud" tushunchasi doirasida izohlandi. Metodologik jihatdan tadqiqot manbada ilgari surilgan ilmiy qarashlarga tayangan holda olib borildi.

Navoiy g'azallarining xalqga yaqinligi, avvalo, uning o'z xalqining milliy an'analarga bo'lgan buyuk muhabbatida aks etadi. U turkona hayot, turkona an'analar, turkiy so'z, turkiy kuy va ashulalarni ulug'laydi:

Soqiyo, may to'lakim arbada istar ko'nglum,
Ey mug'anniy, chola boshla o'kurur ko'kda qo'buz.
G'am g'izosi orasinda qani turkona ayog',
To'ra oyina bila tomsa to'qqiz, oqsa o'tuz.
Turk surudi bila solib qo'lum,
Qilsam anda hay tulugum, hay tulum.
Men dog'i bu maynikim suzubmen,
Turkona surud anga tuzubmen.
Mug'anniy, kelu chert turkona so'z,
Maqomi "Navo", yo'qsa "Turki hijoz".
Navoiyning ash'oridin necha bayt,
Mening hasbi holim topib turki ayt.

"Turk" so'zi Navoiy asarlarida keng va tor ma'noda talqin qilinadi: keng ma'noda umuman turkiy so'zlashuvchilar xalq va elatlar tushuniladi, tor ma'noda esa bir turkiy xalq (ya'ni o'zbek xalqi)ga nisbatan ishlatiladi. Navoiy zamonida Movarounnahr va Xurosonda yashagan va hozirgi o'zbeklarning asosi bo'lgan xalq (o'zbeklar) ham "turk" nomi bilan atalgan, "o'zbek" esa shu xalqning katta bir urug'i bo'lgan. Alisher Navoiy ana shu "o'zbek" urug'iga o'zini juda yaqin tutadi, uning nomini faxr bilan tilga oladi:

Shohu toju xil'atikim, men tamosho qilg'ali,
O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.

Shoir g'azallarida xalq urf-odatlarini, marosimlari, an'analari ham muhim o'rin tutadi. Ularda to'y va aza marosimlari, Navro'z bayrami va xalq sayllari, o'yinlar, xalq taqvimini

bilan bog‘liq tadbirlar tasvirlanadi. Masalan, quyidagi baytlarda bolalar o‘yinlari orqali kattalar hayoti va ijtimoiy holati realistik tusda aks ettirilgan:

Qalag‘ay safhada ruq‘angni ko‘rub oqti yoshim,
Tifldekkim yugurur ko‘rsa mulavvan ko‘palak.
Xom ko‘nglunkim dudog‘ingni tilab afg‘on qilur,
Bor durur ul tifldekkim yig‘lagay halvo uchun.
Shayxi g‘ofil ko‘nglin etti zarq ohidin qaro,
Tifldekkim ko‘zguni qilgay muqaddar dam bila.

Bolalar tabiatiga xos bo‘lgan sodda odatlar yuqoridagi baytlarda parallel tuzilma orqali ifodalanib, g‘azalning hayotga yaqinligini ta‘minlagan. Kundalik turmushdan olingan ruhiy va moddiy holatlarni tasvirlovchi shunday baytlar Navoiyning g‘azallarida yuzlab uchraydi. Shoir ana shunday hayotiy manzaralar orqali o‘z g‘azallarini g‘oyaviy hamda badiiy jihatdan san‘atkorona bezagan, natijada uning g‘azallari davr zamonaviyligi va realizm ruhida yo‘g‘rilgan adabiyotga aylangan. Shuni alohida qayd etish lozimki, Navoiy lirikasida hayotiy voqealarning eng aniq, ravshan va real badiiy ifodasi og‘zaki ijod namunalarida – hikmatli so‘zlar, maqollar, matallar, iboralar va ifodalarda mujassam. Xalq donishmandligi mahsuli bo‘lgan bu durdona misralar she‘riyatning falsafiy va g‘oyaviy qatlamini boyitgan, badiiy qiymatini oshirgan va asrlar davomida xalqning ma‘naviy yo‘ldoshiga aylanishiga sabab bo‘lgan.

Xalq qo‘shiqlari Navoiy g‘azallarining ham mazmuniy yo‘nalishiga, ham badiiy jihatlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. “Xazoyin ul-maoniy”dagi g‘azallarning asosiy qismi mazmun jihatidan sevgi qo‘shiqlariga yaqin turadi. Navoiy g‘azallarining ushbu jihatini professor A. Hayitmetov quyidagicha tavsiflaydi: “Navoiyning yashagan davrida sevgi erkin va baxtli bo‘lmaganidek, oshiq – Navoiyning sevgisi ham, u qanchalik pokiza va samimiy bo‘lmasin, baxtsiz, oldindan baxtsizlikka mahkum etilgan sevgi edi. Bu jihatdan Navoiy lirikasi bilan o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi

Osmonda parcha bulut

Yomg‘ir yog‘ib o‘tgani yo‘q.

Ikki oshiq bir bo‘lib, Murodiga yetgani yo‘q –

mazmunidagi sevgi qo‘shiqlari o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlik bor. Shuning uchun ham Navoiy o‘zining ishqiy lirikasida xalqparvar, keng xalq ommasining ma‘naviy hayotini muayyan darajada to‘g‘ri ifodalagan shoir sifatida maydonga chiqadi. Akademik Oybek ham Navoiy haqida olib borgan tadqiqotlaridan birida: “Navoiy ba‘zida xalq she‘rlariga o‘xshagan, ya‘ni boshqa g‘azallariga qaraganda soddagina, samimiyroq, hayotiyroq asarlar ham yaratadi”, deb alohida ta‘kidlagan edi.

Xulosa

Navoiy gʻazallari va xalq qoʻshiqlari oʻrtasidagi uygʻunlikni tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, har ikkala janr xalqning ichki dunyosini, tuygʻularini, orzu-umidlarini ifoda etishda mushtaraklikka ega. Navoiy ijodining badiiy kuchi, obrazlar jilosi va xalqona ifoda vositalaridan mohirona foydalanishi, xalq ogʻzaki ijodi – ayniqsa, xalq qoʻshiqlari bilan ichki uygʻunlikda ekanligini isbotlaydi.

Tadqiqot davomida Navoiy gʻazallaridagi obrazlar (yor, oshiq, hijron, visol, gul, bulbul) xalq qoʻshiqlarida ham aynan shu tarzda yoki yaqin maʼnodagi timsollar orqali ifodalanishi aniqlandi. Bu esa xalq qalbiga yaqin, ularga tushunarli boʻlgan poetik strukturalarning umumiy ildizlarga ega ekanini koʻrsatadi. Xalq qoʻshiqlarida uchraydigan soddalik, samimiylilik va hissiyotlar Navoiy gʻazallarida mahorat bilan nafis poetik shaklda ifodalangan.

Shuningdek, xalq qoʻshiqlari va Navoiy gʻazallaridagi ritm, qofiya va ohang birligi, ohangdorlikning muhim rol oʻynashi, ularni kuy bilan aytishga yaroqliligi ham ular orasidagi badiiy uygʻunlikning muhim jihatlaridandir. Bunda xalq gʻazallarni nafaqat oʻqigan, balki kuylab, qalb ohangiga solib aytgan. Bu holat Navoiy gʻazallarining xalq ogʻzaki ijodi orqali xalq orasida keng tarqalishiga zamin yaratgan.

Alisher Navoiy ijodi bilan xalq qoʻshiqlari oʻrtasidagi badiiy va mazmuniy uygʻunlik ulkan adabiy-madaniy merosimizning uzviyligini koʻrsatadi. Bu uygʻunlik Navoiy gʻazallarining xalq qalbida mustahkam oʻrin egallaganligini, uning ijodi milliy ong va estetik tafakkur shakllanishida muhim omil boʻlganini tasdiqlaydi. Shu bois, bu mavzuni yanada chuqur oʻrganish, xalq ijodi va yozma adabiyot oʻzaro aloqalarini yoritish bugungi adabiyotshunoslik uchun ham dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: OʻzFA nashriyoti, 1958. – 778 b.
2. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Badoye ul-vasat. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1990. T. 5. – 541 b.
3. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Gʻaroyib us-sigʻar. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1988. T. 3. – 616 b.
4. Hakimov M. Alisher Navoiy lirikasi va xalq ogʻzaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1979. – 195 b.
5. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1974. – 381 b.
6. Mirzayev S. Navoiyda aruz. Kandidatlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 1948. – 124 b.

7. Oybek. Asarlar. IX tom. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 593 b.

